

# **XIRURGIYA VA LABORATORIYA ASBOB ANJOMLARINI STERILLASHDA QO'LLANILADIGAN, STERILIZATSIYA APPARATLARNI, TADQIQ QILISH HAMDA TAQQOSLASH**

***Yusupova Nodiraxon Saidvoris qizi, Ro'ziyeva Niginabonu Bahodir Qizi***

*Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti*

Sterilizatsiya apparatlarining tadqiq qilinishi va taqqoslashi xirurgiya va laboratoriya asbob anjomlarini sterilizatsiyalashda juda muhimdir. Bu texnologiya foydalanuvchilar uchun katta muammolar yechimini topishiga yordam beradi, chunki sterilizatsiya qilinmasa asbob uskunalarga infeksiya tushib bemorlarning hayoti xavf ostida qolishi mumkin.

Sterilizatsiya apparatlari va vositalari, tibbiyotda steril qilinadigan asbob anjomlarini sterilizatsiya jarayonida uning xavfsizligi va ularning samaradorligini ta'minlashda katta ahamiyatga ega. Bu apparatlar yuqori sifatli sterilizatsiya va dezinfeksiya bilan bog'liqdir, va ularga qo'llanishdan oldin juda umumiy sterilizatsiya tekshiruvi o'tkaziladi.

Sterilizatsiya apparatlarining tadqiq qilinishi va taqqoslashi ustida bir nechta muhim bosqichlari mavjud:

1. Sterilizatsiya turini tanlash. Sterilizatsiya usullari turli turdag'i anjom va materiallarga mos ravishda tanlanadi. Sterilizatsiya fizik va kimyoviy usullar bilan amalga oshiriladi. Bu tizimlarni laboratoriylar va klinikalarda qo'llash qulay.

2. Toza sterilizatsiya. Sterilizatsiya apparatlari toza bo'lishi va ishlovchi qurilma uchun steril bo'lishi muhimdir. Bu tizimlar ishlovchi maydonlarni yaxshi steril qilishi va sterilizatsiya jarayonini samarali va tez o'tkazishiga yordam beradi.


3. Nazorat va monitoring. Sterilizatsiya va dezinfeksiya apparatlari monitoring qilinishi, sterilizatsiyalash jarayonini to'g'ri olib borilishini ta'minlanishi lozim. Dastlabki va davomiy nazorat tizimi sterilizatsiya apparatlarining ishlashini tez-tez tekshirishda juda muhimdir.

Sterilizatsiya apparatlari xususida tadqiqotlar olib borishda, ularga quyidagilar misol bo'ladi:

- Sterilizatsiya apparatlari va vositalarini yopilganda uning samaradorligini sinash;
- Sterilizatsiya apparatlari o'rnatilish va ishga tushirilish jarayonlarini tadqiq qilish;
- Apparatlarda sterilizatsiya jarayonini monitoringini olib borish.

Sterilizatsiya apparatlarining samaradorligini va ishslash unumdoorligini sterilizatsiya jarayonlarida, xususan tibbiyot barcha sohasida muhim tizimlardan biridir. Bu tizimlar xizmat ko'rsatish sohalarida toza va steril holatni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Barchamizga ma'lumki, qaynoq suv bug'i issiqlik o'tkazish qobiliyatiga ega. U qaynoq havoga nisbatan yuqori issiqlik darajasiga ega bo'lgani uchun sterilizatsiya qilinayotgan jismga issiqlikni tez yetkazadi. Shuningdek, bug' oqsillarni parchalashi, koagulyatsiya va gidrolizga uchratib, to'g'ridan-to'g'ri sterilizatsiya qiladigan omil hisoblanadi. Oquvchi bug' bilan sterillash avtoklavda bajariladi [1](1-rasm).



1-rasm. Bug‘ sterilizatori “Avtoklav” sxemasi.

Yuqorida qayd etilganlarni hisobga olgan holda sterilizatsiya qilish usullariga batafsil to‘xtalib o‘tsak.

Quruq issiqlik bilan sterilizatsiya qilish sterilizatsiya qilinadigan obyektlarni qizdirishga asoslangan va unda sterilizatsiya qilinayotgan jismlardagi harorat 170°C-200°C ga yetishi kerak.

Bu usul katta energetik kuchga ega bo‘lib, sterilizatsiyaning kuchi materiallarning barcha qisimlariga yetib boradi.

Amaliyotda ultratovush to‘lqinlar yordamida nurlanish usuli ham keng qo‘llaniladi.

Bu usulda sterilizatorlar kuchsiz antiseptik (0,05 foiz xlorgeksidin biglyukonatning suvli eritmasi) bilan to‘ldiriladi va ultratovush to‘lqinlar ta’sirida xirurgik instrumentlar, kichik plastmassa obyektlari yoki jarroh qo‘lqoblari dezinfeksiya qilinadi.

Tibbiyotning tez rivojlanishi va unda qo‘llaniladigan asbob-uskunalarning ko‘payib borilishi, tibbiyotda qo‘llaniladigan odatdagি sterilizatsiya usullarni qo‘llanilishi yetarli emasligini ko‘rsatdi va yangi sterilizatsiya usullar ixtiro qilinishiga olib keldi.

Modda va buyumlar maxsus idishda olib borilib, sterillash maxsus indikatori bilan belgilanadi. Havo va bug‘ sterilizatorlari maksimal termometrlar va kimiyoviy test-indikatorlar yordamida nazorat qilinadi. Sterilizatorlarning sifatli ishlash ko‘rsatkichlari kimiyoviy test-indikatorlarining rangi va agregat holati bilan tekshiriladi.

Xulosa qilib aytganda, sterilizatsiya apparatlari tadqiq qilinishi sterilizatsiyalash jarayonlarining unumдорligini ta‘minlashda muhim o‘rin tutadi. Bu tadqiqotlar sterilizatsiya apparatlari va vositalarini xorijdagi sterilizatsiya apparatlari bilan taqqolashda va ularni o‘zimizning milliy apparatlarimiz bilan moslashtirish uchun muhim.

Sterilizatsiya apparatlari va tizimlarining muvaffaqiyatli tadqiqoti va taqqoslashi sterilizatsiya bo‘yicha muassasalar va laboratoriylar uchun juda muhimdir, chunki sterilizatsiya jarayoni samaradorligi, faolligi, va ishonchliligin ta‘minlash uchun muhim ko‘rsatkichdir. Bu tadqiqotlar va taqqoslashlar sterilizatsiya tizimlarini to‘g‘ri ishlashi va sterilizatsiya jarayonlarining samaradorligini ta‘minlashda katta ahamiyatga ega.

### **Adabiyotlar**

1.O‘.O.Oripov, Sh.N.Karimov «Umumiy xirurgiya». «Yangi asr avlodi», 2008-y

2.A.J. Hamrayev, A.V. Alimov, T.S. A’zamxo‘jayev «Xirurgiya va reanimate-siya asoslari» 2017-yil